



2015-yil 29-avgust

«Poly Group» korporatsiyasining delegatsiyasi tashrifi

2015 yilning 25-28 avgust kunlarida Xitoyning «Poly Group» korporatsiyasi prezidenti janob Chjan Chjengao boshchiligida delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida "O'zkimesanoat" AJ, "O'zavtosanoat" AK va boshqa idoralarda uchrashuvlar tashkil etilib, "Angren" EIZ hududida konveyer lentalarini, qishloq xo'jaligi texnikasi va avtomobil shinalari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasining amalga oshirilishi bo'yicha muzokaralar olib borildi.

Xitoy tomoni avtomobil shinalari ishlab chiqarishni kengaytirish, hom-ashyo va materiallar mahalliyashtirish hamda yuk avtomobil va avtobuslari uchun shinalari ishlab chiqarishni tashkil etishda o'z qiziqishini bildirdi. Shuningdek Xitoy tomoni tog'-kon, neft va gaz sanoati kabi boshqa yo'nalishlarda o'zaro manfaatli investitsiya hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha fikr bildirdi.

2015 yilning 28 avgust kuni ushbu loyiha bo'yicha qurilish ishlarini boshlanishiga bag'ishlangan tantanali marosimda "Poly Group" korporatsiyasining rahbariyati, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, banklar hamda xo'jalik birlashmalar, Xitoyning O'zbekistondagi elchixonasi vakillari ishtirok etishdi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi va XXR o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish doirasida ushbu loyiha strategik ahamiyatga egaligi ta'kidlandi. Shuningdek, barcha ishlar imzolangan kontraktga belgilangan muddatlarga muvofiq bajarilishi alohida qayd etildi.

Shu bilan birga ushbu tashrif doirasida mustaqil halqaro konsultant «Asiatech Consulting Ltd.» (Avstraliya) va Xitoyning "ChemChina" instituti bilan birgalikda yangi zavodning bosh rejasini tasdiqlandi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, "Angren" maxsus iqtisodiy zonasida konveyer lentalarini hamda avtomobil va qishloq xo'jaligi texnikasi uchun shinalari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda "Angren" erkin industrial zonasi hududida rezinotexnika buyumlari zavodi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida gi PQ-2269-sonli qaroriga binoan amalga oshirilmoqda. Loyihasining yillik quvvati - 3 mln dona avtomobil shinalari, 200 ming dona qishloq xo'jaligi texnikalari uchun shinalar va 100 ming pogon metr konveyer lentalarini ishlab chiqarishdan iborat. Ushbu loyiha amalga oshirish maqsadida "Rezinotexnika buyumlari zavodi qurilishi bo'yicha direktivasi" MChJ Xitoyning "Poly Technologies Inc." kompaniyasi bilan "to'liq foydalanishga topshirish" sharti bilan kontraktni 2014 yilning avgust oyida imzolagan.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/poly-group-korporaciasining-delegaciyasi-tashrifi>